

Tuman hokimligi tashabbusi bilan mavjud mahallalarda Istiqomat qilayotgan yoshlardan iborat jamoalar o'rtasida o'tkazilgan mini futbol musobaqasi g'oliblari tuman bosqichida ham o'z muxlislariga hayajonli lahzalarni taqdim etishdi.

IQTIDOR EGALARI TAQDIRLANDI

Qizg'in bahs va munozaralar qurshovida bo'lib o'tgan bellashuvda g'alabaga erishgan "Dilorom" mahallasi yoshlari "Hokim kubogi"ni qo'lga kiritishga muvaffaq bo'ldilar. Yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini keng targ'ib qilish, ularning yot g'oyalar ta'siriga tushib



qolishlarini oldini olish va ishtirokchilar orasidan iqtidorli futbolchilarni saralash maqsadida tashkil etilgan ushbu musobaqada o'z raqiblaridan ustun ekanliklarini namoyon etgan "Paxtakor" mahallasining futbolchilari 2-o'rin, "Oq-buloq" mahallasining yoshlari esa 3-o'ringa loyiq deb topildi.



Katta sport bayramiga aylanib ketgan musobaqaning g'olib va sovrindorlari tuman hokimligi tomonidan medallar va bir martalik pul mukofoti bilan taqdirlandilar.

SH. MAMIROV,

"Paxtakor hayoti" gazetasing fotomuxbiri.

17.04.2023



Toshkent shahrida bo'lib o'tgan boks bo'yicha kattalar o'rtasidagi jahon chempionatida muvaffaqiyatli ishtirok etib, kumush medalni qo'lga kiritgan hamyurtimiz Oybek Jo'rayev tantanali kutib olindi.

Tuman hokimining o'rinbosarlari, sport ustalari hamda kong jamoatchilik vakillari ishtirokida bo'lib o'tgan marosimda tumanimiz rahbari Asilbek Ashurov kumush medal sovrindorini erishgan muvaffaqiyati bilan qutlab, uni kamolga yetkazgan, sport bilan muntazam shug'ullanishi uchun munosib sharoit yaratib bergan ota-onasiga, murabbiylariga va yaqinlariga qizg'in

Sport arenalarda

HAMYURTIMIZNING G'ALABASI

minnatdorlik bildirdi. Shu kuni Oybek tug'ilib o'sgan xonadon uning yaqinlari, do'stlari, katta-kichik yoshdagi sport ixlosmandlari, mahalla ahli bilan to'lib-toshdi.

- Shu kunga yetib kelishimga, shonshuhrat qozonishimga sababchi bo'lgan ota-onamga, birinchi ustozimga minnatdorchilik bildiraman, - dedi Oybek Jo'rayev, - Qo'llab-quvvatlaganingiz, qayg'ur-ganingiz, intizor bo'lib kutganingiz uchun tashakkur. Ishontirib aytamanki, sizlarni hali ko'p marta xursand qilaman.

Yarim finalda rossiyalik Dmitri Dvalini 5:2 hisobida mag'lub etgan Oybek Jo'rayev final jangda qozog'istonlik Mahmud Sabirxan bilan to'qnashdi va chempionatning kumush medaliga sazovor bo'ldi. Ushbu vaznda birinchi raqamli bokschi sifatida qatnashgan Maxmud Sabirxan yarim final jangida kubalik Soto Veytiyani mag'lub etgan edi.

SH. MAMROV,

"Paxtakor hayoti" gazetasing fotomuxbiri.

№ 16, 22, 05.2023